



**O‘ZBEKISTON HUDUDLARIDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI
RIVOJLANTIRISHDA XITOIY VA TURKIYA MAMLAKATLARIDAGI
OLINGAN TAJRIBALARDAN INNOVATSION USULDA FOYDALANISH**

Narkuziyev Anvar Rustamovich

O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali

O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali talabasi

Kenjayev Xajimurod Odil o‘g‘li

[e-mail: anvar.norquziyev824@gmail.com](mailto:anvar.norquziyev824@gmail.com)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xitoy hamda Turkiya davlatlarining hududlarida kichik biznes va tadbirkorlik sohasi uchun infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha bir nechta adabiyotlar tahlilini va ular tajribasini mamlakatimizda foydalanish imkoniyatlarini ko‘rib chiqamiz. Shuningdek, yuqorida nomlari keltirilgan davlatlarda tadbirkorlik infratuzilmasini hududlarda rivojlantirish zarurati, uning nafaqat kichik biznes va tadbirkorlik sohasiga balki mamlakat iqtisodiyotiga ta‘siri o‘rganilgan. Maqolada tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirishning xorij tajribasini yurtimizda qo‘llashga e‘tibor bergan holda masalaga yondashilgan va hududlarda infratuzilmani rivojlantirishda inobatga olinishi kerak bo‘lgan ayrim jihatlarini tavsiya sifatida keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: hududiy infrastruktura, инфраструктура, kichik biznes va tadbirkorlik, Xitoy, Turkiya

Bugungi kunda istalgan sohani rivojlantirish uchun xorij tajribasini o‘rganish va uni mamlakatda foydalanish imkoniyatlarini baholash dolzarb hisoblanadi. Sababi ayrim davlatlar ma‘lum bir yo‘nalishda muvaffaqiyatga erishgan holda dunyo hamjamiyatiga na‘muna yaratgan bo‘ladi. Bunday muvaffaqiyatli tajribalardan foydalanish kelgusi xavf-hatarlarni va xarajatlarni pasaytirish imkonini beradi. Shu sababdan hududlarda kichik biznes va tadbirkorliklar uchun infrastrukturani rivojlantirish bo‘yicha Turkiya va Xitoy davlatlar tajribasini o‘rganishga qaror qildik.

Bizga ma‘lumki, Xitoy davlati kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish va unga zarur infrastrukturani yaratish bo‘yicha yetakchi davlatlardan sanaladi. Boshqa davlatlar tajribasidan farqi shundaki mamlakatda qisqa muddatda mahalliy bozorlarni to‘yintirish hamda eksportga yo‘naltirilgan tovar va xizmatlarni yaratish uchun kerak bo‘ladigan infratuzilmani yarata oldi. Shuningdek mamlakat



iqtisodiyoti rivojlanishi hamda jamiyat farovonligining negizi bo'lib xizmat qilmoqda. Iqtisodchi olimlar tadbirkorlik muhitini iqtisodiy rivojlanish va tadbirkorlikni yanada ommalashtirishda juda ham muhim omil deb hisoblashadi. Mamlakatlar darajasida olib qarasaq, Xitoy doimiy ravishda kichik biznes hamda tadbirkorlik sohasini rivojlantirish uchun islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. Korxonalar darajasida biznes muhitini optimallashtirishni foyda solig'i va xususiy mulk dahlsizligi o'zida aks ettiradi. Turkiya davlati ham Xitoy hukumati kabi mamlakat hududlarida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda zarur infrastrukturani yaratishda ulkan yutuqlarga erishgan davlatlardan biri sanaladi. Yuqorida sanab o'tilgan omillar korxonalarining transaksion harajatlari va risklarini kamaytirishga xizmat qiladi. Aslida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishga juda ko'plab omillar ta'sir etadi. Ko'plab olimlar tomonidan biznes muhitini yaxshilash tadbirkorliklar sonini ko'paytirishga xizmat qiladigan biznes infrastrukturani rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Aytish joizki, Xitoy kompaniyalari har kuni biznes yuritishning yangicha yo'llarini o'ylashsa, boshqalar esa o'zgarishlarga tezkorlik bilan moslashish to'g'risida bosh qotirishadi. Hukumat tomonidan yaxshigina tadbirkorlik qilish uchun infratuzilma yaratilgan bo'lib, ular iste'molchiga yo'naltirilgan infratuzilmani rivojlantirish haqida ko'proq bosh qotirishadi[1].

Xitoyda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda e'tibor berilishi kerak bo'lgan jihatlar quyidagicha (1-jadval) uch toifaga ajratiladi.

1970 yildan boshlab Xitoy hukumati tomonidan kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish masadida amalga oshirgan islohotlari sabab xususiy sektor asta-sekinlik bilan paydo rivojlandi va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda juda katta ahamiyat kasb eta boshladi.

Xitoy tadbirkorligining dinamik infratuzilmasi. Bugungi kundagi Xitoyning tadbirkorlik uchun yaratgan infrastrukturasini samarali olib borilgan islohotlar va tizim natijasi deyish mumkin. Sababi mamlakat yillar mobaynida infrastrukturani shakllantirar ekan, iqtisodiyotda investitsiyalar faolligini ta'minlay oldi. Bu esa yangidan yaratiladigan firmalarning manbalaridan biriga aylandi. Tadbirkorlik subyekti yaratilar ekan, u "tug'ilganidan" boshlab bozorning boshqa ishtirokchilari bilan munosabatlarining qanday bo'lishining institutsional asoslari mustahkamlab qo'yilgan edi. Aniqroq aytganda, qonuniy ravishda ish boshlashidan oldin xususiy tadbirkor qancha ishchi kuchi ishlata oladi, faoliyat davomida hamkorlari kimlar



boladi, bank sektori bilan a'loqasi qanday bo'ladi kabi savollarga javobni yaxshi biladi. Bu orqali tadbirkor faoliyat yo'nalishini baholash imkoniga ega bo'ladi.

Xitoy asosan iqtisodiy infrastrukturaga 1998 yildan boshlab katta e'tibor bera boshladi. Transport, elektr energiyasi, gaz tarmog'i, telekommunikatsiya, shahar suv ta'minoti va sanitariya sohalariga xarajatlar 1994 yilgi 39 mlrd dollardan 1998 yilga kelib 88 mlrd dollarga yetdi. 2003 yilda 123 mlrd dollargacha oshib YaIMga nisbatan 8.7 foizini tashkil etdi. Boshqa Osiyo davlatlari moliyaviy inqirozni boshdan kechirayotgan bir paytda Xitoy moliyaviy islohotlarni amalga oshirgan holda infrastrukturaga mablag' yo'naltira oldi. Shu bilan bir qatorda mazkur soha markaziy hukumatdan hududiy birliklari sari harakatlana boshladi. Bosh hukumat sohani rejalashtirish, moliyalashtirish va siyosiy muvofiqlashtirishda o'z rolini mustahkamlayotgan bir paytda, hududiy birliklar infratuzilmani qanday qilib moliyalashtirish va boshqarish bo'yicha moslashish jarayonini boshdan kechirayotgan edi[3]. Xitoyda kichik biznes va tadbirkorlik, xususiy sektor rivojlanishining o'ziga xos tarixi mavjud. 1978 va 1992 yillar oralig'ida hukumat dastlab qishloq ho'jaligini nomarkazlashgan boshqaruvga o'tkazish orqali fermerlarga nimani, qancha va qanday yetishtirish bo'yicha imkoniyat yaratib berdi. Natijada, kichik shaharchalar va qishloqlarda (TVE - township and village enterprises) kichik biznes va tadbirkorlikning rivojlaishiga sabab bo'ldi. Bu vaqt oralig'ida hukumat turli turli xil siyosiy islohotlarni amalga oshirdi va xususiy sektor rivoji uchun huquqiy o'zgarishlar qildi[4].

Shuningdek, hukumat tomonidan kichik biznes va tadbirkorlik sohasini rivojlantirish va unga qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha amalga oshirilgan ishlardan biri – bu sanoat klasterlarining tashkil etilishidir. Xitoy iqtisodiyoti tarixida sanoat klasterlarini tashkil etish samarali islohotlardan biri hisoblanadi. Ushbu klasterlar hukumat tomonidan ayniqsa hududiy boshqaruv birliklari tomonidan faol ravishda qo'llab-quvvatlangan. Mahalliy hukumat yordamlari turli xil bo'lishiga qaramasdan, sifatli infrastruktura yaratish maqsadida asosan “bozor muvaffaqiyatsizlik” lari yuzaga kelgan tomonlarga e'tibor berilar edi. Hukumat uchun yo'llar, energiya ta'minoti, suv va internet tarmoqlari ta'minotlari orqali infratuzilmani shakllantirish eng asosiy prioritet hisoblansa, hududiy hukumatlar biznes faoliyatiga ko'maklashish maqsadida maxsus bozorlar yoki sanoat parklarini bunyod etishga harakat qiladi. Bu kabi bozorlar ishlab chiqaruvchilar, sotuvchilar va iste'molchilarni bir joyda jamlash uchun qulay sharoitlarga ega bo'lib, sanoat klasterlarini rivojiga katta hissa qo'shdi. Shichiao provinsiyasida mahalliy bozorni tartibga solish va ishlab chiqarish va savdoni rivojlantirish maqsadida shahar



hukumati norasmiy bozorning o'rniga Janubiy Tekstil bozorini tashkil etdi. Shenjou provinsiyasida munisipal hukumat tomonidan 557 mln RMB "Xitoy Poyabzal Kapital" sanoat zonasini va Lu Cheng shahrida poyabzal ishlab chiqarishga ixtisoslashgan kompleksni barpo etish uchun sarfladi. Jejiangda esa, turli xil manbalar hisobidan "kashmir sviter bozori" ni tashkil etdi va qo'shimcha infrastrukturani shakllantirish uchun xususiy tadbirkorlar jalb etildi. Investorlarga asosan logistic markaz, yuklash joylari, omborxonalar va avtoturargoh kabilarni barpo etishga ruxsat berildi. Yuqoridagi kabi misollarni mamlakat bo'ylab istalgancha topish mumkin edi[7].

Tadqiqot metodikasi

Mazkur maqolada iqtisodchi olimlarning Xitoy hamda Turkiya davlatlari hududlarida kichik biznes va tadbirkorlikning rivojlanishi, unga yaratilgan infratuzilma tajribasi bo'yicha olib brogan tadqiqotlari tahlil etilgan hamda ularning tajribasini mamlakatimizda foydalanish imkoniyatlari baholangan. Shuningdek, xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish orqali muayyan xulosa va takliflar berilgan. Mavzuni tadqiq etish mobaynida mantiqiylik va tarixiylikning birligi, ilmiy abstraktsiya, deduksiya va statistic tahlil kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Bugungi kunda mamlakatda kichik biznes va tadbirkorlik uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishadigan bo'lsak, quyidagicha ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Dastlab sohalar bo'yicha elektr energiya iste'moliga to'xtalamiz.

Birinchiidan, dastlabki dekadada elektr energiya iste'moli umumiy hisobda unchalik ham o'zgarishga uchramagan. Keying o'n yillikda elektr iste'moli sezilarli drajada oshgan.

Xitoy hukumati o'z iqtisodiyotini zamonaviylashtirish va barqaror o'sishini ta'minlash maqsadida doimiy ravsihda infrastrukturaga davlat xarajatlarini amalga oshirib keladi. Ya'ni turli xil davlat dasturlari, rivojlanish dasturlari va yirik infrastrukturaga investitsion harajatlarni amalga oshiradi. Umumiy harajatlar 2003 yilda 0.62 trln dollarni (YaIMning 13%i) tashkil etgan bo'lsa, 2015 yilga kelib ushbu ko'rsatkich 2.1 trln dollargacha (YaIMning 20%i) oshdi.

Tadqiqotlarga ko'ra ushbu yo'nalishda islohotlar davom etadi va 2030 yilga kelib infrastrukturaga harajatlar tahminan 16 trlnni tashkil etadi.

Jahon tajribasida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish va unga zarur infratuzilmani yaratish bo'yicha o'z o'rniga ega davlat bu – Turkiya hisoblanadi. Bu sohada Turkiyaning eng katta yutug'i bu – tartibli va samarali xususiylashtirish hisoblanadi. Bu sohada ishlarning boshlanishi 1980 yilga borib taqaladi. Hukumat



davlat mulkini xususiylashtirish hamda yangilarini barpo etishni birgalikda olib bordi. Shu bilan birgalikda mavjud hamda yangidan yaratilayotgan korxonalar uchun albatta talab darajasidagi infrastruktura zarur ekanligini bilishardi.

Zarur infratuzilmalardan biri – bu logistika sohasi bo'lib, mazkur sohada texnologik o'sish hisobiga xalqaro savdoda samaradorlik oshishiga erishildi. Bu esa turk firmalarining jahon bozorlari bo'ylab tovar va xizmatlari kengroq yoyilishiga katta hissa qo'shdi. Temir hamda suv yo'llaridagi ulkan yutuqlar mamlakatni xalqaro savdodagi o'rnini yanada mustahkamlashga yordam berdi. Bu orqali tranzit yuk tashish xizmati rivojlandi va hududiy korxonalar uchun muhim infratuzilmalardan biri bo'lib xizmat qildi.

Infrastururani juda muhim deb biladigan Turkiya hukumati 2053 yilgacha o'zining uzoq yillik strategiya va maqsadlarini ishlab chiqdi. Unga ko'ra kelgusi 30 yilda katta yo'llar hajmini, temir va suv yo'llari orqali tashishni va infratuzilmaga investitsiyalarni ikki barobardan ko'proq oshirish belgilangan. Transport va Infrastruktura vazirining aytishicha, temir yo'l tarmog'i 2053 yilgacha bugungi 13000 kmdan 28590 kmgacha uzaytiriladi.

2003 va 2021 yillar oralig'ida 172 mlrd dollardan ko'proq investitsiyalar transport va kommunikatsiya sohasiga o'zlashtirilgan: - deydi Transport va Infrastruktura vaziri Karaismailoğlu. Vazirning aytishicha, “2053 yilgacha investitsiyalar hajmi 198 mlrga oshiriladi”

Hisob-kitoblarga ko'ra, yuqorida keltirib o'tilgan infrastrukturaga sarflar natijasida quyidagilarga erishiladi:

- Hukumat 176 mlrd dollar tejaydi, shundan:
 - Vaqt hisobidan 59 mlrd dollar
 - Yoqilg'i hisobidan 26 mlrd dollar
 - Baxtsiz hodisalar kamayishi hisobidan 10 mlrd dollar
 - Tabiat ifloslanishining kamayishi hisobidan 31 mlrd dollar
 - Va boshqa tashqi omillar hisobidan 56 mlrd dollar

Karaismailoğluning aytishicha Turkiya yo'lovchi va yuk tashish bo'yicha Yevropa, G'arbiy Osiyo va Afrika davlatlari uchun hab vazifasini bajaradi.

Shuningdek turizm sohasi rivojlanib, turistlar oqimining infratuzilmaga bosimining ortishi sababli, 2053 yilgacha bugungi kunda faoliyat yuritayotgan 56 ta aeroport 61 taga yetkaziladi.

Boshqa davlatlar tajribasidan foydalanishda yetarlicha imkoniyatlar mavjud. Hududlarimizda turli malakaga ega ishchi kuchini topish mumkin. Har bir hududning o'ziga xos bo'lgan, bir-birini takrorlamaydigan ichki resurslari mavjud.



Bugungi kunda olib borilayotgan iqtisodiy siyosat zamirida jamiyat farovonligi yotipti. Bunda ochiqlik siyosati, tadbirkorlikni rivojlantirish, shaffof sud huquq tizimi kabilarga asoslanmoqda. Shu sababli jahon hamjamiyatiga integratsiya jarayoni ham jadallashib bormoqda. Bu kabi islohotlar mamlakatimizda biznes infratuzilmani rivojlantirishning xorij tajribasini qo'llash qo'l keladi.

Xulosa va takliflar

Ammo aytish joizki, hech bir narsa nomukammallikdan, kamchiliklardan holi emas, jumladan hududlarda infratuzilmani rivojlantirishning Xitoy tajribasi ham: qanday kamchiliklar mavjud edi?

- Investitsiyalarning behuda sarflanishi
- Davlat fondlarining suiiste'mol qilinishi
- Qishloq hududi yerlarini qurilish maqsadida haddan tashqari ko'p ajratilishi
- Tabiatga zarar yetkazilishi

Shuningdek, mamlakatimizda hududlarda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda infratuzilmani yaxshilash bo'yicha Xitoy va Turkiya tajribasini foydalanish uchun quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish zarur deb hisoblaymiz:

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Ruipeng Tan, Lulu Pan, Mengmeng Xu, Xinju He, "Transportation infrastructure, economic agglomeration and non-linearities of green total factor productivity growth in China: Evidence from partially linear functional coefficient model", *Transport Policy*, 2022, ISSN 0967-070X, <https://doi.org/10.1016/j.tranpol.2022.09.027>.
2. [Rong, K.](#), [Liu, Z.](#) and [Shi, Y.](#) (2011), "Reshaping the business ecosystem in China: case studies and implications", *Journal of Science and Technology Policy in China*, Vol. 2 No. 2, pp. 171-192. <https://doi.org/10.1108/17585521111155228>
3. Yang, J.Y., Li, J. The development of entrepreneurship in China. *Asia Pacific J Manage* **25**, 335–359 (2008). <https://doi.org/10.1007/s10490-007-9078-8>
4. He, C., Lu, J. & Qian, H. Entrepreneurship in China. *Small Bus Econ* **52**, 563–572 (2019). <https://doi.org/10.1007/s11187-017-9972-5>
5. Atherton, A., & Newman, A. (2017). *Entrepreneurship in China: The Emergence of the Private Sector* (1st ed.). Routledge. <https://doi.org/10.4324/9781315625126>



6. Li, H. (2012). History and Development of Entrepreneurship in China. Entrepreneurship and Economic Growth in China, 13–34. doi:10.1142/9789814273374_0002
7. Douglas Zhihua Zeng (2012) “China’s Special Economic Zones and Industrial Clusters: Success and Challenges” Lincoln Institute of Land Policy Working Paper, help@lincolninst.edu
8. www.worldbank.org
9. www.stat.uz
10. Rustamovich N. A. SMALL BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP ACTIVITIES IN DEVELOPMENT INTERNAL TO RESOURCES BASED ON TERRITORIAL INFRASTRUCTURE IMPROVEMENT //GWALIOR MANAGEMENT ACADEMY. – Т. 25. – С. 47.
11. Narkuziyev A. R. ICHKI RESURSLARGA ASOSLANGAN HUDUDIY INFRATUZILMANI TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJ TAJRIBASINI QO „LLASH (O „ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SOHASI UCHUN FOYDALANISH IMKOMIYATLARI) //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. TSTU Conference 2. – С. 390-400.
12. Норкўзиев А. Р. ИҚТИСОДИЙ КАТЕГОРИЯ СИФАТИДА ИНФРАТУЗИЛМА ТУШУНЧАСИНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ ВА ИШЛАБ ЧИҚАРИШ СОҲАСИДАГИ АҲАМИЯТИ //Academic research in educational sciences. – 2022. – №. Conference. – С. 157-161.
13. Наркўзиев А. Р. ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОНЯТИЯ ИНФРАСТРУКТУРЫ КАК ЭКОНОМИЧЕСКОЙ КАТЕГОРИИ И ЕЕ ЗНАЧЕНИЕ В СФЕРЕ ПРОИЗВОДСТВА //PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS. – 2023. – Т. 2. – №. 21. – С. 11-14.
14. Narkuziyev A. R. ICHKI RESURSLARGA ASOSLANGAN HUDUDIY INFRATUZILMANI TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJ TAJRIBASINI QO „LLASH (O „ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SOHASI UCHUN FOYDALANISH IMKOMIYATLARI) //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. TSTU Conference 2. – С. 390-400.
15. Норкўзиев А. ҲУДУДЛАРНИНГ ЛОГИСТИК ИНФРАТУЗИЛМА САЛОҲИЯТИ ТАҲЛИЛИ //Iqtisodiyot va ta’lim. – 2022. – Т. 23. – №. 6. – С. 419-423.
16. Rustamovich N. A. O ‘ZBEKISTON HUDUDLARIDA ICHKI RESURSLARGA ASOSLANGAN HUDUDIY INFRATUZILMASIDAN FOYDALANISH IMKOMIYATLARI VA MAMLAKATIMIZDA



- INNAVATSION USULDA FOYDALANISH //O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2023. – Т. 2. – №. 17. – С. 104-115.
17. Rustamovich N. A. O 'ZBEKISTON HUDUDLARIDA ICHKI RESURSLARGA ASOSLANGAN HUDUDIY INFRATUZILMASIDAN FOYDALANISH IMKOMIYATLARI VA MAMLAKATIMIZDA INNAVATSION USULDA FOYDALANISH //O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2023. – Т. 2. – №. 17. – С. 104-115.
18. Narkuziyev A., Norbekova M. KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA INFRATUZILMA FAOLIYATIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH //Science technology&Digital finance. – 2023. – Т. 1. – №. 3. – С. 171-186.
19. Rustamovich N. A. ROLE OF INFRASTRUCTURE TO DEVELOP SMALL BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP ACTIVITIES IN UZBEKISTAN //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – Т. 9. – С. 412-416.
20. Наркузиев А. Р. ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОНЯТИЯ ИНФРАСТРУКТУРЫ КАК ЭКОНОМИЧЕСКОЙ КАТЕГОРИИ И ЕЕ ЗНАЧЕНИЕ В СФЕРЕ ПРОИЗВОДСТВА //PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS. – 2023. – Т. 2. – №. 21. – С. 11-14.
21. Norkuziyev A. R. Theoretical Analysis Of Role Infrastructure On The Development Smes In Uzbekistan //International Conference Dedicated To The Role And Importance Of Innovative Education In The 21st Century. – 2022. – Т. 1. – №. 9. – С. 131-135.
22. Akramovich N. A. The priority of using innovative technologies in the agricultural education system //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 10. – С. 185-191.
23. Akramovich N. A. HISTORY, SUBJECT AND OBJECT OF FORMATION OF" MACROECONOMICS" //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 10. – №. 1. – С. 209-210.
24. Nizametdinov A. A. OLIY TA'LIM TIZIMIDA AGRAR SOHANING USTUVORLIGI UNDA INNOVATSIYALARNING QULLANISHI //INTERNATIONAL CONFERENCES. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 96-98.



25. Baxrom X., Alijon N., Aziz Z. THE ROLE OF THE PRIVATE SECTOR IN THE DEVELOPMENT OF TOURISM //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 12. – С. 130-136.
26. Камолов Д. Spiritual and moral environment of society //Информатика и инженерные технологии. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 278-282.
27. Xolmuradovich X. B. et al. BUSINESS ETHICS AND CULTURE, RULES FOR ITS WORK //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 12. – С. 184-191.
28. Akramovich N. A., Azamatovna U. S. TA'LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: DOLZARB TENDENTSIYALAR VA STRATEGIK YONALISHLAR //INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2023. – Т. 1. – №. 9. – С. 36-40.
29. Худояров Р., Низаметдинов А. МАЛЫЙ И СРЕДНИЙ БИЗНЕС В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ МИРОВОЙ ЭКОНОМИКИ //Центральноазиатский журнал образования и инноваций. – 2023. – Т. 2. – №. 6 Part 2. – С. 188-193.
30. Raipovna V. S., Akramovich N. A., Durdona A. CONTENT AND FUNCTIONING OF THE MARKET ECONOMY //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 12. – С. 105-110.